# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI VA OILADA NUTQ O'STIRISH BO'YICHA METODIK ISHLAR

***Mirzoyeva Nigora***
*O'zbekiston-Finlandiya*
*pedagogika instituti o'qituvchisi*
***Razzoqova Shaxriniso***
*Sharof Rashidov nomidagi*
*Samarqand davlat Universiteti Urgut filiali talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari va oila o'rtasidagi hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yishning ustuvor yo'nalishlari muhokama qilinadi. Bu borada yangi pedagogik texnologiyalar joriy etish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga mos ravishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan xonalarda ta'lim tarbiya berish , o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash maqsadida ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida faol nutq ko'nikmalarini shakllantirish metodik, usul va uslublarni qo'llash orqali oilada sog'lom muhitni shakllantirish, oila va maktabgacha ta'limda yangi metodlardan foylanish haqida qisqacha keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim, nutq madaniyati, tarbiya turlari, nutq metodlari,logoped, nutq o'stirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va oilada nutq madaniyati, nutqni shakllantirish uchun asosiy vosita va metodlardan biri bu- fikrlash uslubi hisoblanadi. Oila esa fikrni shakllantirish bosh bo'g'ini, fikrlash , savol -javob , muloqot, ya'ni dialog va manologik nutq madaniyatini shakllantirish bola taraqqiyotida faol nutqga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllantirish, bolani ham aqliy mantiqiy, teskorlik bilan savollarga javoblar berishi bolada fiklash qobiliyatini shakllantiradi. Farzand tarbiyasida oila o'rnini yunon faylasuflari bolalar tarbiyasi masalasi azaldan muhokamaga sabab mavzu sanalgan. "Bolalarni kim tarbiya qilishi kerak, oilami yoki davlat" - degan jumboq qadimgi yunon faylasuflari Aflotun ham Arastu davrlaridanoq paydo bo'lgan. Bu ikki olim ham o'z qarashlarini bayon etgan. Ularning fikriga ko'ra, bola tarbiyasi bilan davlat shug'ullanishi kerak va barcha zarur ishlarni davlat bajarishi kerak edi. Bu fikrni qo'llab-quvvatlovchilar ham topildi. Biroq sharq mutafakkirlari bu nazariyani rad etishdi, aksincha bola tarbiyasi uchun dastavval ota-ona javobgar degan fikrni ilgari surishdi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga solish zarur ekanligini Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida keltirib o'tgan. Necha asrlik

tarixga ega bo‘lishiga qaramay o‘sha fikrlar hali ham amalda muhim sanaladi. “Ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta’sirining bor kuchi obro‘ga asoslanadi. Biroq, bu obro‘ tabiatan berilmaydi, sun’iy ravishda yaratilmaydi, qo‘rqitish va zo‘rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr oqibatdan kelib chiqadi”-degan fikrni yoqlaydi. Bolani tarbiyalash oiladan boshlanadi, oila - bu mustahkam jamiyat poydevor, boshlang’ich bo’g’in hisoblanadi. Shu bois haq qnday ta’lim maskani bevosita oila bilan mustahkam hamkorlikni yo’lga qo’yishishi shart.

Ta’lim tarbiya ishlarini oilada va maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil qilish bolalar bilan har xil metod va savol javob, manologik va dilalogik nutqni shakllantirish bolani keyingi maktab ta’limiga tayyorlashda asosiy vosita hisoblanadi. Oilada ta’lim - tarbiya berishda Ota -Ona bolaga to‘g’ri munosabati bilan, ya’ni yolg’on ishlatmasdan fikr bildirishi, nutq madaniyatini o’zlashtirishda xatoga yo’l qo’ymasdan so’zlarni talaffuz qilganda tushunarli va durust yondashish bola nutqini ijobiy shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Tarbiya berishda bolani yoshlikdan boshlab ta’lim va tarbiyani birga olib borish tarbiyani barcha turlarida bolani faol qatnashtirish bolani sog’lom har tamonlama yetuk shaxs sifatida o’stirish, oila va maktabgacha ta’lim muassasalari o’rtasida hamkorlikni tashkil qilish ya’ni tarbiya turlari: aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnat, huquqiy tarbiyaning bu turlanini shakllantirirish oiladan boshlash ota onaga bog'liq va maktabgacha ta'limda ham tarbiyachi tomonidan ta'lim tarbiya berish bolaning yoshiga mos holda ta'lim tarbiya berib boriladi.Bolani tarbiyalashda ingliz olimi filosofiD.J.Lokning fikri bolaning qalbi nimani hoxlasa yozishi mumkin bo‘lgan oq qog‘ozga o‘xshaydi. Bu oppoq qog‘ozgni yaxshi narsalar bilan ham yomon narsalar bilan ham to'ldirish ota onaga bog‘liq deb ta’kidlaydi, ya’ni ta’lim tarbiya oiladan boshlanadi, bolani tarbiyalash birinchi o‘rinda ota onaga bog‘liq degan .Nutq - bir ohangda fikrlar jamlamasin,i inson ongli mavjudot sifatida so'zlash o'z fikrlarini erkin bayon qilish ,so'zlarni og'zaki bayon qilish, o'z fikrlarini yetkazib berish uni manologik va dialogik uslublarni shakllantirirish nutqiy metodlar orqali bayon qilish ohangini tashkil qiladilar.Nutq o'stirish metodlariga savol javob , og''zaki , suhbat, ko'rgazmali usul fikr bildish ham kiradi. Ota onalar bilan o'tkaziladigan treninglar , ota ona burchaklarini tashkil qilish, ota onalar bilan suhbatlshish ota ona qo'mitasini tashkil qilish, tarbiyachi bilan hamkorlikni ish shakllarini yo'lga qo'yish , fikr almashish muloqot jarayonida bir bir bilan munozara o'tkazish usul metodlarini qo'llay olish tarbiyachining nutqiy mahoratini soz bo'yligini ko'rsatib beruvchi nazariy va amaliy jihatdan tashkil qilish ota onalarni suhbatda ishtirok etish va o'z filrlarini bildirib hamkorligida ishlash uchun asosiy yo'nalishda faol bo'lishi nutqiy bilimga ko'nikmalarni qo'llay olish tarbiyachi uchun ma'suliyat hissini uyg'otadi.2. Maktabgacha ta'lim muassasalari va oilada olib boriladigan ishlar.Ta’lim muassasalarida ota - onalar va tarbiyachilar bilan o’tkaziladigan har bir munozaralar

bolalarni maktabning ilk bosqichiga qadam qo'yishlarni bilan o'tilishida yordam beradi hamda sog'lom bola va sog'lom muhit sharoitini mustahkam yaratishga imkon beradi.

Treninglar maktabgacha ta'lim muassasa uslubchisi, maktabgacha tayyorlov gurux tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari,boshlang'ich sinif o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jumallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaming uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi.Ota-onalar qo'mitasi. Ota-onalar qo'mitasi «Maktabgacha ta'lim muassasining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi, U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi .Ota-onalar qo'mitasi bolalaming ota-onalari bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo'yicha ular bilan ish olib boradi. Qo'mita a'zolari har ikki oyda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Shuni unitmaslik kerkakki bolani o'zi bajara olmaydigan topshiriqlar bilan band qilib qo'ymang.

**FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**.

1. XUJAMBERDIYEVA SHAXNOZA KUPAYSINOVNA ABDUSAMATOVA NARGIZA JAMOLIDNOVNA ISABAYEVA ASIDA YUSUF JONOVNA "BOLALARNI NUTQINI O'STIRISH."
2. F.R Qodirova.Sh.QToshpulatova , N.M.Qayumova. "Maktabgacha pedagogika"

**Internet resurslari**.

1.https:lex.uz/docs.

2.@huquqiy axborot.